

"ETIKA" - AXLOQIY QADIRYATLAR FALSAFASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15454715>

Mannopov Xamid Mutalovich

(Toshkent davlat texnika universiteti professori, f.f.n.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Axloqiy qadiryatlар, Etika haqida Axloqning inson va jamiyat o'rtasidagi aloqadorgi, shaxsning xayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq atvor, odob xatti -xarakat prinsp va normalari haqida so'z borgan. Axloq-nima, odob, xulq, etika haqida Axloqiy qadiryatlар, axloqiy madaniyat, muomila madaniyati, kasbiy odob, suxbatlashish etikasi, bat afsil yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

Dunyoqarash, ilm, ma'naviyat, ommaviy madaniyat, faoliyat, fazilatlar, so'z, qadiryat, iymon, etika. Kirish. Har tomonlama ma'naviyatli Raxbar ishini shunday tashkil qiladiki -odamlar ha, bu xalq farovonligi yo'lida g'amxo'rlik qiluvchi va uni hamma narsadan yuksak qo'yuvchi raqbar deydi. SH.M.Mirziyoyev. «Etika» so'zi yunoncha ethos -odob, urf-odat ma'nosini anglatadi. Bu atama maxsus fan nomi sifatida ilk bor Aristotel (er. avv. 384-322y.y.) tomonidan fanga kiritilgan edi, keyinchalik uni qat'iy ma'noda stoiklar ishlatgan edilar. Axloqshunoslik bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan qadimiy fan. U bizda "Ilmi ravish", "Ilmi axloq", "Axloq ilmi", "Odobnama" singari nomlar bilan atab kelingan.

Ovro'poda esa «Etika» nomi bilan mashhur, biz ham yaqin-yaqingacha shu atamani qo'llar edik. Uni birinchi bo'lib yunon faylasufi Arastu muomalaga kiritgan. Arastu fanlarni tasnif qilarkan, ularni uch guruhga bo'ladi: nazariy, amaliy va ijodiy. Birinchi guruhga u falsafa, matematika va fizikani; ikkinchi guruhga -etika va siyosatni; uchinchi guruhga esa -san'at, hunurmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi. Shunday qilib, qadimgi yunonlar axloq haqidagi ta'limotni fan darajasiga ko'targanlar va «Etika» (ethika) deb ataganlar. Biroq, bizda milliy-mintaqaviy axloqiy qadriyatlarimizning, dastlabki axloqiy g'oyalarning vujudga kelishi qadimgi yunonlar yashagan davrdan o'nlab asrlar avval ro'y bergan.

Ajdodlarimizning eng ko'hna e'tiqodiy-axloqiy kitobi -«Avesto» buning yorqin dalilidir. Shu sababli endilikda bu fanni ham ilmiy-tarixiy, ham zamonaviy-hayotiy talablar nuqtai nazaridan «Axloq falsafasi» deb atashni

maqsadga muvofiq deb bildik. Axloqshunoslik qadimda fizika va metafizika bilan birgalikda falsafaning uzviy (uchinchi) qismi hisoblanar edi. Keyinchalik (Arastudan so'ng) alohida falsafiy yo'nalishdagi fan maqomini oldi. Bu fikrni quyidagicha kengaytiribroq talqin etish mumkin. Ma'lumki, falsafaning fanlar podshosi sifatidagi vazifasi barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuqlardanumumiylar xulosalar chiqarib, insoniyatni xaqiqatga olib borishdir. Shundan kelib chiqqan holda, falsafaning tadqiqot ob'ektini tafakkur deb belgilash maqsadga muvofiq.

Axloqshunoslik axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etadi va amaliyotda insonni ezgulik orqali haqiqatga olib borishga xizmat qiladi. Shu bois uni axloq falsafasi yoxud ezgulik falsafasi deb atash mumkin.-harakatlarning majmui .

Hozir u falsafiy fan sifatida uch yo'nalishda ish olib boradi, ya'ni axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etar ekan, u axloqni:

- 1) bayon qiladi;
- 2) tushuntiradi;
- 3) o'rgatadi.

Shunga ko'ra, utajribaviy-bayoniy, falsafiy-nazariy va rasmoname'yoriytabiatga ega. Qadimgilar uni amaliy falsafa deb ataganlar. Zero sof nazariy axloqshunoslikning bo'lishi mumkin emas. U insoniyat o'z tajribasi orqali erishgan donishmandliknamunalarini hikmatlar, naqllar, matal-maqollar tarzida bayon etadi, kishilarni axloqiy qonun-qoidalarga o'rgatadi, ularga axloqning mohiyatini tushuntiradi va falsafiy xulosalar chiqaradi. Yani, axloqshunoslik fanida Aflatun, Arastu, Epikur, sitseron, Seneka, Avgustin, Forobiy, Ibn Sino, G'azzoliy, Spinoza, Kant, Hegel, Shopenhauer, Foyerbax, Kirkegaard, Nitsshe, Vl. Solovyov, Losskiy singari buyuk faylasuflar yaratgan axloq nazariyasiga doir ta'limotlar bilan birgalikda «Patanjali», «Qobusnama», Sa'diyning «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub ul -qulub», Montenning «Tajribanoma», Laroshfukoning «Hikmatlar», Gulxaniyning «Zarbulmasal» kabi amaliy axloqqa bag'ishlangan asarlar ham o'z mustahkam o'rniiga ega.

Axloqshunoslikning boshqafalsafiy fanlardan farqi ham, o'ziga xosligi ham undagi nazariya bilan amaliyotning omuxtaligidadir.Demak, «etika», «axloq» «xulq-atvor» tushunchalari bir-biriga yaqin, lekin ayni bir xil tushunchalar emas. Etika axloq va xulq-atvor to'g'risidagi fandir, axloq-odob, xulq-atvor esa u o'rganadigan ijtimoiy hodisalardir.Etika fanining o'rganishob'ektiaxloqdir.

Axloq -ijtimoiy ongning maxsus shakli, jamiyat ma'naviy hayotining muhim sohasi.Etikaningpredmetiaxloq vujudga kelishi va taraqqiyotining umumiy qonuniyatlar, uning mohiyati, tarkibi, tamoyillari va me'yorlaridir.Etika axloq vujudga kelishi va taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini o'rganganligi sababli

falsafiy fanbo'lib hisoblanadi. Uni qadimdan «amaliy falsafa» deb atab kelganlar. Chunki falsafaning ontologiya, gnoseologiya, sotsiologiya, estetika, mantiq kabi boshqa sohalaridan farqli ravishda etika odamlarning o'zlarini turli sharoitlarda qanday tutishlari, qanday qilib axloqiy bo'lib borishi qonun-qoidalarini o'rgatadi, ularning axloqiy munosabatlarini shakllantiradi. Etika axloqningkelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rghanadi.

«Axloq» so'zi arabchadan olingan bo'lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlari majmuini, fe'lini, tabiatini anglatadigan «xulq» so'zining ko'plik shaklidir. «Axloq» iborasi ikki xil ma'noga ega: umumiy tushuncha sifatida u fanning tadqiqot ob'ektini anglatsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi. Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak, doiraning eng kichikqismini odob, undan kattaroq qismini -xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi.

Odob-inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroqli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Xulq-oila, jamoa, mahalla-ko'y miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydiganyoqimli insoniy xatti. Etikaga doir dastlabki tushunchalar shumerliklarning „Me“ qonunlar majmuyida uchraydi. Undagi „namlul“ tushunchasi insonparvarlik, ezgulik ma'nolarini anglatgan. Bobil podshosi Xammurapi qonunlarida, „Pxatoten o'gitlari“, „Misr mayyitlar kitobi“, Avesto kabi qadimiy yodgorliklarda axloqiy tamoyillar va me'yorlar qonunlar, e'tiqodiy da'vatlar shaklida berilgan; Hindistonning „Manuqonunlari“, „Dhammapada“, „Patanjali“ kabi yodgorliklarda esa pandnomma va hikmat usuli ustuvor. qadimiy Xitoy daochi donishmandlari insonni tabiatning bir qismi sifatida olib qaraydilar va uning vazifasi fazilat yo'lidan borish ekanini, barcha yovuzliklar, baxtsizliklar insonning tabiat joriy etgan qonunlardan chekinishi oqibati ekanini ta'kidlaydilar. Konfutsiy va uning izdoshlari fazilat egasi bo'lishni urf-odatlarga so'zsiz bo'ysunishda ko'radilar.

Qadimiy Sharqdagi, xususan, Misr va Hindistondagi axloqiy g'oyalar, qarashlar antik davr estetikasiga ilmiy-nazariy asos bo'ldi. Yunon mutafakkirlari Sokrat va Platon qarashlarida ilohiylik axloqning asosi, insonga axloqiylik azaldan berilganligi ta'kidlansa, Aristotel inson kamolotga bilish faoliyatini, voqelikka faol munosabati orqali, hirs-u ehtiroslar ustidan hukmronlik qila olishi tufayli erishadi, deydi. Sitseron, Seneka, Epiktet singari qadimiy Rim axloqshunoslarining qarashlarida esa qullik, erk, hayotning ma'nosi, baxt

muammolari o‘rtaga tashlanadi. O‘rta asrlar etikasida qadimgi Sharq mutafakkirlari (Roziy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd) asarlari va fikhiy tasavvufiy yo‘nalishlarda Abu Lays Samarqandiy, G‘azzoliy, Rumiy, Aziziddin Nasafiy, Navoiy, Koshifiy tomonidan yozilgan kitoblar etika taraqqiyotiga katta hissa bo‘lib qo‘sildi. Uyg‘onish davri faylasuflari o‘z axloqiy qarashlarida ulardan samarali foydalandilar (Valla, Monten).

Bu ta’sirni yangi davr axloqshunosligida ham yaqqol sezish mumkin; Gobbs, Spinoza, Gelvetsiy, Golbax, Russo kabi ma’rifatchilar axloqning shaxs va jamiyat hayotidagi o‘rniga, demokratik o‘zgarishlarning axloqiy ildizlariga e’tiborni qaratdilar. Bu davrda nemis mumtoz axloqshunosligi alohida ahamiyatga ega bo‘ddi; u bir tomondan ratsional nazariyalarni (Kant, Shiller, Fixte, Shelling, Gegel, Feyerbax), 2tomondan, noratsional qarashlarni (Kyerkegor, Shopengauer, Nitsshe) o‘rtaga tashladi; Kant burchga asoslangan imperativ (qat’iy amr) g‘oyasini ilgari surdi, Gegel axloqning miqyosiyligini, huquqning asosi, jamiyatning qoni va joni ekanini, Feyerbax axloqiy xattiharakatlarda hissiyotning, ayniqsa, muhabbat hissining ahamiyatini ta’kidladilar. Noratsional yo‘nalish tarafdarlari insonni tushunchalar (aql) yordamida bilish mumkin emasligini, yovuzlikning ezgulikdan g‘olib kelayotganligi axloqsizlikni axloqiy niqob bilan berkitishga doimiy urinish bilan bog‘liqligiga, inson ixtiyor iskanjasida, manfaat va hukmronlik yo‘lida hech narsadan toymaydigan jonzotga aylanib borayotganiga diqqatni qaratdilar.

XIX asrning 2-yarmi-XX asr boshlaridagi rus mumtoz axloqshunosligi axloqiylikni diniylik bilan yaxlitlikda olib qaradi (V.Solovyov, F.Dostoyevskiy, N.Berdyayev, B.Visheslavsev), ezgulik bilan yovuzlikning dialektik aloqadorligi masalasini o‘rtaga tashladi. Etik tafakkurlar tarixida axloq tabiatи haqidagi turli ta’limotlar vujudga kelgan (gedonizm, evdemonizm, utilitarizm).

Hozirgi paytda g‘ayrizo‘ravonlik axloqshunosligi (Gandi, King, Sharp, Guseynov) muhim ahamiyatga ega. U yovuzlikka qarshi zo‘ravonlik ishlatmasdan kurashishni tavsiya etadi-terror qilish, qon to‘kish, isyon ko‘tarish bilan emas, muhabbat, kechirimlilik, yuksak axloqiylik, ezgu ixtiyor va iroda vositasida ish tutish lozim. Shuningdek, bugungi kunda hayotga ehtirom yoki universal etika (A.Shveyser), yangi tasavvuf etikasi (M.Qutqu, M.Jo‘shon) insoniyat oldiga dolzarb axloqiy vazifalarni qo‘ymoqda. Hayotga ehtirom insondan mavjudlikdagi har bir jonzotga-o‘simlikka ham, hayvonlarga ham o‘z hayoti kabi oliy qadriyat deb qarashni talab etsa, yangi tasavvuf axloqshunosligi industrial jamiyatda nafsga qarshi kurashishning muhimligini isbotlab beradi.

Endilikda etika oldida qator global muammolar turibdi; insoniyat hozir noosfera (texnikaviy muhit)da yashab, biosfera (biologik muhit)dan tobora

uzoqlashib bormoqda, inson tafakkuri vujudga keltirgan fantexnika taraqqiyoti endilikda insonning o‘ziga, uning mavjudligiga qarshi xavf sifatida ham maydonga chiqmoqda: atom, vodorod, neytron bombalarning, yadroviy kallakli ballistik raketalarning yaratilishi, olamiy okeanning, yer osti va yer usti suvlarining zaharlanishi kabi hodisalar ekologik tozalikdan ham ko‘ra axloqiy poklikni talab qilmoqda. Klonlashtirish, bir inson a’zosini boshqa insonga ko‘chirib o‘tkazish, evtanaziya (bemorning o‘z o‘limini.tezlashtirish to‘g‘risidagi iltimosini qondirish) va boshqalar muammolar ham axloqiy aralashuvga muhtoj.

O‘zbek milliy etikasi boshqa falsafiy fanlar kabi mintaqaviy tabiatga ega bo‘lib, uning ildizlari Avestoga borib taqaladi. Avestoda ilgari surilgan 3 fazilat-ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal yaxlitligidan iborat axloqiy g‘oya barcha davrlar o‘zbek etikasi uchun umumiy tadqiqiy asos bo‘lib keldi. Tasavvufiy etikada mazkur yaxlitlik 4 fazilat yaxlitligi (ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal va ma’rifat) shaklida namoyon bo‘ldi (Aziziddin Nasafiy, Koshifiy). Naqshbandiya tariqati axloqshunosligida esa asosiye’tibor insonning zamon va makondagi roliga, axloqiy xattiharakatning zamon ehtiyojlarini hisobga olishi, ilohiy va insoniy fazilatlarning uyg‘unligi masalasiga qaratildi (Bahouddin Yaaqshband, Alisher Navoiy). O‘rta asrlar o‘zbek etikasida nazariy fikrlar bilan pandnoma usulidagi hikoyatlar omuxtaligi ko‘zga tashlanadi (Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Yassaviy, Poshshoxoja). Bu jihatdan temuriylar davridagi pandnomalar, ayniqsa, Navoiyning „Mahbub ul-qulub“ asari noyob hisoblanadi. Keyingi davrlardagi eng e’tiborli pandnoma Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridir. Jadidchilik harakati davrida axloqshunoslikka e’tibor yanada kuchaydi; jadidlar milliy ozodlikka erishish yo‘lini xalq axloqiy darajasini va ma’rifatni yuksaltirishda ko‘rdilar. Anbar Otinning „Qarolar falsafasi“, Avloniyshtg „Turkiy Guliston yoxud axloq“, Fitratnit „Najot yo‘li“, „Oila“ asarlarida shaxs axloqiy hayotining jamiyat taraqqiyotiga ta’siri, yangicha turmush tarzining axloqiylik bilan bog‘liqligi masalalari ko‘tarildi. Axloqiylikni sinfiylik va partiyaviylik kabi tamoyillarga bo‘ysundirgan sho‘rolar davri etikasi soxta fan sifatida o‘z vazifasini o‘tay olmadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, kechmish axloqiy qadriyatlar, an’anaviy urf-odatlar, milliy va axloqiy tamoyil hamda me’yorlar jamiyatda o‘z o‘rnini egallagach, etika fani ham taraqqiyot yo‘liga kirdi, etika tarixi va nazariyasiga doir yirik tadqiqotlar e’lon qilindi (Y.Jumaboyev, E.Yusupov). O‘zbekiston milliy universitetida etika va estetika kafedrasи mavjud; barcha oliy o‘quv yurtlarida etika fani o‘qitiladi.

Hozirgi paytda olimlar (X.Shayxova, A.Sher, F.Zagritdinova, M.Mahmud va boshqalar) etika tarixi va nazariyasining dolzarb muammolariga doir yangi tadqiqotlar olib bormoqda. Shaxsning dastlabki axloqiy qadriyatlari ilk bolalik davrida topilgan. Hatto ota-onalar chaqaloqqa nima yaxshi va nima yomonligini, muayyan vaziyatlarda qanday qilib to'g'ri yo'l bilan ishslash kerakligini, nima uchun biror narsaning bajarilmasligini va boshqalarni tushuntiradi. Oddiy qilib aytganda, uni olib kelishadi. Ayni paytda bolaning kattalaridagi barcha so'zlari shubhasiz haqiqatdir va shubha tug'dirmaydi. Ammo bola o'sadi, axloqiy tanlov holatiga kiradi va asta-sekin mustaqil xulosalar chiqarishni o'rganadi. Axloqiy qadriyatlar ko'pincha din bilan bog'liqligi sir emas. Imonlilar Muqaddas Kitobdag'i so'zlarni shubha ostiga olmaydilar va u erda belgilangan qonunlarga muvofiq yashashadi. Bir darajaga qadar, bu hayotni ancha osonlashtiradi, chunki asosiy savollarga berilgan javoblar uzoq vaqtadan beri topilgan. Agar u yerda tasvirlangan ma'naviy qadriyatlar har kimga yaqin bo'lsa, jamiyat yanada toza va mehrli bo'lishi mumkin. Bu ideal. Ammo shafqatsiz haqiqat, har doim ham, odamlar o'zlarining yaqinlarini Xudoning yaxshiliklari uchun qilayotganini e'tiqodida o'ldirishlari kerakligi haqidagi ta'limotni talqin qiladigan ustalar edi. Hozir biz asta-sekin dindan uzoqlashamiz, lekin u o'rniqa qonunlar, ijtimoiy harakatlar mafkurasi va yana ko'p narsalar kodlari kiritilgan. va bir kishi bir vaqtning o'zida to'liq qarama-qarshilik ko'rsatishi mumkin. va ularni tushunish va haqiqatdan ham qimmatbaho, munosib va haqli narsani tanlash juda qiyin. Bu holat, har bir kishi o'zi uchun asosiy qarorlarni qabul qilishini va haqiqiy axloqiy qadriyatlarning individual ekanligini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda Insonning axloqiy qadriyatlari yoki ular, shuningdek, axloqiy fazilatlar deb ataladigan bo'lsak, inson hayotida butun insoniyatga singdirilgan. Ular dunyoqarashning muhim qismidir va har bir kishining fikr va xatti-harakatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Turli xil odamlardagi axloqiy g'oyalar sezilarli farq qilishi mumkinligiga qaramasdan, hali ham umumiyl fikrga ega bo'lish mumkin. Yuqori axloqiy qadriyatlar ko'p asrlar mobaynida o'zgarmagan. Ko'p odamlar uchun eng oliy axloq -bu sevgi. Haqiqat, yaqin, samimiyy munosabat, oilani barpo etish, oilaning davom etishi va bolalarni tarbiyalash orzusi hayotning asosiy mazmunidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Sher, Abdulla. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Toshkent, 2000.
2. Aristotel, Nikomaxovaetika (soch. v 4x t., t. 4), Moskva, 2014.

- 3.Navoiy A., Mahbub ul-qulub (Mukammal asarlar to‘plami, 20 jildli, 14j.), Toshkent, 1998.
- 4.Forobiy, Fozil odamlar shahri, Toshkent, 2011.
- 5.Avloniy A., Turkiy Guliston yoxud axloq, Toshkent, 2015.
- 6.Jumaboyev yil, O‘zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan, Toshkent, 1997.
- 7.Yusupov etika, Inson kamolotining ma’naviy asoslari, Toshkent, 1998.